

PUL BOZORI VA LIKVIDLIK SHARHI 2025-YIL IV CHORAK

Qisqa tavsif

2026-yil Mart


2025-YIL IV CHORAGIDAGI LIKVIDLIK DINAMIKASI TAVSIFI

2025-yil IV chorakda bank tizimi umumiy likvidlik holati o'rtacha 32 trln so'mni tashkil etib, III chorakka (o'rtacha 21,3 trln so'm) nisbatan 49 foizga balandroq shakllandi. Likvidlik profitsiti oktyabrda o'rtacha 25 trln so'mdan noyabrda 28,7 trln so'mgacha oshib, dekabrda o'rtacha 41,7 trln so'mni tashkil etdi.

2025-yil 1-oktyabrdan majburiy zaxiralash bazasi qamrovi 10 foizdan 15 foizga oshirilishi ta'sirini yumshatish uchun chet el valyutasidagi majburiyatlar bo'yicha rezerv normasi 10,5 foizdan 9,5 foizgacha pasaytirildi. Natijada, IV chorak davomida bank tizimining umumiy o'rtachalash talabi III chorakka nisbatan o'rtacha 0,5 trln so'mga oshib, 16,6 trln so'mni tashkil etdi.

Chorak davomida banklarning vakillik hisobvarag'ida o'rtacha 2 trln so'mlik qo'shimcha likvidlik shakllanib, to'lovlar uzluksizligini ta'minlashga xizmat qildi. Mavsumiy omillar hisobiga muomaladagi naqd pullarga bo'lgan talabning oshishi esa IV chorakda bank tizimi likvidligining 3 trln so'mga qisqarishiga xizmat qilgan.

Bank tizimidagi umumiy likvidlik holati, trln so'm




BANKLARARO PUL BOZORI

2025-yil IV choragida banklararo pul bozorida jami 183,6 trln so'mlik operatsiyalar amalga oshirildi. Ta'kidlash joizki, pul bozori amaliyotlarining choraklik YIMga nisbati IV chorakda 33,6 foizni tashkil etdi.

Banklararo pul bozori amaliyotlarining 70 foizi REPO operatsiyalariga to'g'ri kelib, uning hajmi 129 trln so'mni tashkil etdi. Banklararo depozit operatsiyalari hajmi esa 54,3 trln so'mga teng bo'ldi.

Banklararo pul bozori amaliyotlari, trln so'm



BANKLARARO PUL BOZORINING SEGMENTATSIYASI


2025-yil IV chorakda banklararo pul bozorida overnayt operatsiyalar ulushi 86 foizni tashkil qildi. Muddati 2–7 kunlik operatsiyalarning 54,4 foizi oktyabr oyiga to'g'ri kelgani majburiy zaxira talablari o'zgarishi sababli muddatli likvidlikka ehtiyoj oshgani bilan izohlanadi.

Chorak davomida banklararo pul bozoridagi faollik avvalgi chorakka nisbatan pasaygan bo'lsa-da, operatsiyalar ko'lami hamda bozor ishtirokchilari soni bank tizimida likvidlikni qayta taqsimlash mexanizmlarining rivojlanayotganini va likvidlikni boshqarish samaradorligining ortib borayotganini ko'rsatadi.

Pul bozorining konsentratsiyalashuvini ifodalovchi Herfindahl–Hirshman indeksi bo'yicha 2025-yil dekabr oyida likvidlikni jalb etish hamda likvidlikni taqdim etish segmentida konsentratsiya darajasining oshishi yuqori likvidlik profitsiti sharoitida ayrim yirik ishtirokchilar ulushining ortishi hamda likvidlikni jalb etish va taqdim etish operatsiyalarining nisbatan cheklangan doiradagi banklar hissasiga to'g'ri kelishi bilan izohlanadi.

2026-yilning I choragida byudjet amaliyotlarining mavsumiy kamayishi, bank tizimida xorijiy valyutaga nisbatan talabning jadal oshishi, shuningdek, naqd pullarga bo'lgan talabning pasayishi likvidlik profitsitini nisbatan kamaytiruvchi omillardan bo'lishi kutilmoqda.

Pul bozorlaridagi operatsiyalarning muddatlar kesimida ulushi, foizda




LIKVIDLIKNI TARTIBGA SOLISH OPERATSIYALARI

IV chorak davomida Markaziy bank bank tizimi likvidligini samarali tartibga solish maqsadida likvidlikni jalb etish bo'yicha asosiy operatsiyalardan faol foydalandi hamda pul bozori foiz stavkalarining foiz koridori doirasida va asosiy stavkaga yaqin shakllanishini ta'minlashga qaratilgan choralarni kuchaytirdi.

Natijada pul bozoridagi foiz stavkalari nisbatan barqarorlashib, chorak davomidagi o'rtacha UZONIA stavkasi 13,9 foiz atrofida shakllandi.

Pul bozorining benchmark foiz stavkasi, foizda



Tizimli likvidlik profitsiti sharoitida foiz stavkalari keskin tebranishining oldini olish maqsadida Markaziy bankning overnayt depozit operatsiyalaridan ham faol foydalanildi va ularga talab oktyabr oyidagi 2,7 trln soʻmdan dekabr oyida 6,4 trln soʻmgacha oshdi. Chorak davomida Markaziy bankning tijorat banklari bilan pul-kredit operatsiyalari boʻyicha oʻrtacha sof pozitsiyasi 30 trln soʻmni tashkil etdi.

Pul-kredit operatsiyalari, trln soʻm

